

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA MANZARA YARATISHDA KOMPOZITSIYA VA RANGLAR YECHIMI

Istamov Zavqiddin Sadulloyevich

Istamov Farrux Sadulloyevich

Mansurov Elyor Akbarovich

Annotatsiya:

Mazkur maqolada tasviriy san'at o'quvchilariga tabiat manzarasini tasvirlashda kompozitsiya va ranglar yechimi haqida to'la to'kis yoritib berilgan. Manzara ishlashda joylashtirishdan toki ishni yakuniy bosqichigacha bo'lgan jarayonni qamrab olgan.

Kalit so'zlar: Rang gammasi, kompozitsiya, kolorit, contrast, ton.

Manzara ishlash jarayoni rassomdan jida katta qunt va talab qiladi. Kuzatuvchi tabiat manzaralarini katta masofa ajratib turishini yorug'lik va soya reflekslarini xilma-hilligi va ko'pligi, yorug'-soyalarning tez o'zgaruvchanligi, ob-havo va fasllarning o'zgarishi bularning barchasi manzara ishlamoqchi bo'lgan rassom mehnatini qiyinlashtiradi. Shuningdek, qiziqarli motivlarni paydo bo'lishiga olib keladi.

Tasviriy san'atda perspektiva qisqarish hamda narsalarning kuzatuvchidan uzoqlashgani sari o'zgarib borishi ma'nosida ishlatiladi. Perspektiva rassomga manzarani naturada qanday ko'rilsa kartinada shunga mos tasvirlash imkonini beradi. Shuning uchun ham perspektiva qoidalarini o'zlashtirish manzara chizish jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Peyzaj asarlarining muvaffiyati ularda tasvirlangan predmetlarning o'zaro uyg'un o'lchovlarda aks ettirilishiga ham bog'liq. Buning uchun bo'lajak rassom naturani diqqat bilan kuzatish, narsa va buyumlar jonivorlarning bir-birlariga nisbatan o'lchovlarini ularning ufq chizig'iga nisbatan joylashishi kabi jihatlarini tasvirlash bilan ularda manzara chizish malakasi shakllanib boradi.

Kartinadagi barcha ko'rinib turgan narsalar maysa, daraxt, osmon bularning barchasi bizning ko'zimizdan uzoqlashgani sari kichiklashib boradi. Bundan tashqari ranglarning ham o'zgarishini kuzatishimiz mumkin. Yaqin masofada turgan binolar



daraxt bilan undan naridagi daraxt ranglari bir-biridan keskin farq qiladi. Uzoqlashib borayotgan barcha narsalarning ranglari to'qlashib boradi. Shamol bulutlarni surib boradi, bulutlar orasidan quyosh nurlari ko'rinib manzaramizdagi yorug'-soyani ajratmoqda.

Birinchidan, kuzatuvchiga yaqin turgan manzara qog'oz betining pastki qismida tasvirlanadi. Kuzatuvchiga nisbatan uzoqda ko'rinadigan narsalar qog'oz betining yuqori qismiga joylashtiriladi. Kuzatuvchiga nisbatan uzoqda ham, yaqinda ham joylashmagan narsalar qog'ozning o'rtasida tasvirlanadi. Perspektiv qisqarishni qog'ozda aks ettirish ko'rish nutasiga nisbatan olinadi.

Ko'rish nuqtasidan xayolan chiqarilgan chiziqlar manzaraning yuqorisi va pastki qismidan o'tkaziladi. Manzaradagi boshqa narsalarning perspektiv qisqarishini belgilashda ko'rish chizig'ini o'zgartirmaslik talab qilinadi.

Manzara chizish jarayonida yorug'-soylar, ranglar munosabatini kuzatish har bir ko'rinishning hususiyatlarini idrok etish bilan chegaralanib qolmay, naturani yahlit holda ko'ra olish malakasini shakllantirish, oldingi, orta va orqa planni yahlit ko'ra olish maydoni sifatida idrok etish zarur bo'ladi.

Manzaradagi turli holatda joylashgan manzarani alohida emas, yahlit birlikda bir-biriga bog'langan bitta asar sifatida idrok etish muhimdir. Rassomdan rang perspektivasini hususiyatlarini puhta bilishni talab qiladi. Rang p'perspektivasi deganda borliqdagi barcha narsalar kishi ko'zidan uzoqlashib brogan sari o'z rangini o'zgartirishi tushuniladi. Bizdan uzoqlashgan sari narsalar havoga singib borayotgandek ko'rinadi.

Agar narsalar belgilari bilan tasvirlansa u bizga yaqin tirgandek taassurot tug'iladi. Narsalarning belgi-hususiyatlarini hiralashishi unu bizdan uzoqlashtiradi. Oldingi planda joylashgan narsalardagi yorug'-soylarning keskinligi kuzatiladi. Tuman, chang, tutun bilan qoplangan joydagi narsalar ko'rinishi hiralashadi. Uzoqlashgan sari narsalarning rangi havorangga moyillashib boradi, rangidagi farqlar kamayib boradi. Manzara ishlash jarayonida xajmlik yoki yorug'lik perspektivasini ham etiborga olish zarur. Narsalar yorug'lik manbaidan o'zining yorqinligi, rangi, shakli aniqligini yo'qota boradi.

Manzarada kompozitsiya-kartinani tuzish, uning qismlarini mazmunga javob bera oladigan qilib moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kompozitsiya yechimida



tasvirlanadigan voqelikka eng yaxshi qarash nuqtasini tanlash, ob`yektlarni to`plash va qo`yish katta ahamiyatga egadir.

Manzarada rassom uchun eng asosiy narsa-markaz, kompozitsiya tuguni, ikkinchi darajali qismlarning unga bo`ysunishidir. Kompozitsiya ustida ishlash badiiy obraz yaratish yo`llari va vositalarini izlash, rassom g`oyasini eng yaxshi gavdalantirish yo`li va vositalarini topish ishlarini amalga oshirishdir. Buning uchun yaratilajak kartina mavzusini tanlash, syujetga mos o`lchamli sath (tasvir ishlanadigan yuza) topish, masshtablar va proportsiyalarni moslash, asarga to`g`ri tus va rang berishdir. Shu nuqtai nazardan biz ishlamoqchi bo`lgan qishloq manzarasida o`zbek qishlog`ini bahor faslida tabiat fonida qanday ko`rinishga kirishi, uni go`zal tomonlarini ifoda etish va bu bilan kartinani muvaffaqiyatini ta`minlashdan iborat. Manzara kompozitsiyasini tuzilishi quyidagichadir: Bahor fasli. Kartinani birinchi planida yo`l tasvirlanadi. Yo`l qishloq tomon ketgan, maysalar unib chiqib qolgan. Kartinani ikkinchi planida qishloq uylari ko`rinib turibda. Qishloq hovlilaridagi teraklar hali to`liq barg yozib ulgurmagan, lekin bodom, o`rik daraxtlari qiyg`os gullagan. Orqa planda tog`lar ko`zga tashlanadi. Osmon ochiq, lekin uning ayrim joylarida to`p-to`p bulutlar suzib yuribdi. Tasvirlanadigan tog`lar xuddi osmon bilan singib ketgandek taassurot qoldirish lozim. Shu fikrlardan kelib chiqib, bajarilgan etyudlar yordamida bahor faslidagi qishloqni ko`rinishini kompozitsion tuzilishini belgilab, quyidagi bosqichlar asosida ish olib borildi. Avvalo bizning g`oyamizga mos tushadigan etyudlarni ajratildi va shular asosida manzara eskizi yaratildi. Yaratilgan eskiz xolstga tushurilib, moybo`yoqda ishlash uchun tayyorlab qo`yiladi. Manzara rangtasvirida rang eng asosiy vosita hisoblanadi. Manzarada rang tomoshabinning idrokini yo`naltiradi, hissiyotlariga kuchli ta`sir qiladi, zavqlantiradi, tasvir mohiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. U kompozitsiya elementi bo`lib, asarning kompozitsion tuzilishida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki manzarada kompozitsiya detallarni joylashtirishigina emas, balki rang-dog`larning maqsadga muvofiq ishlatilishidir. Kompozitsion tuzilishning shu tomonlari asarning mazmunini aniqroq ifodalab berishga yordam beradi va uning asosiy g`oyasini ochib ko`rsatishga xizmat qiladi. Rang atrofdagi voqelikning hamma boyligini, narsalarning sifati, uning rangini ko`rsatadi, narsani shaklini yaratadi, material va uning xususiyatini aks ettiradi. Rassom uchun rang gammasi havo kabi zarurdir. U muayyan kayfiyat, taassurot yaratadi, asardagi eng asosiy



narsani payqab olishida yordam beradi. Rang asarning go`zalligini oshiradi. Unga yaxlitlik va ta`sirchanlik baxsh etadi. Bo`layotgan voqealarni fazoviy kenglikda, illyuzion aniqlikda aks yettirish imkoniyatini beradi. Manzaraning rangi va uning tovlanishi xususiyati, rang birikmalarini garmoniyasi va go`zalligi, rang tuslarini boyligi, manzarani rang jihatidan puxta ishlanishi rassomning hayratda qoldiradigan hadyasidir, chunki manzarada rang effekti tomoshabinda yaxshi kayfiyat tug`diradi, ayniqsa uning hissiga va emotsional munosabatiga ta`sir etadi. Kolorit esa rassomning obrazli va psixologik xarakteristikasi, kayfiyati, uning ob`yektga munosabatini aks ettiradigan vositadir. Qishloq manzarasini ishlashda ranglarning ushbu xususiyatlaridan foydalanildi. Oldingi plandagi maysalar yashil rang tuslarida. Lekin boshqa iliq ranglar ishtirokida ishlandi. Kartinaga fazoviy kenglik berish niyatida oxirgi planning asosan sovuq ranglar gammasida ishlandi. Manzarani yaratishda, ranglarning o`zaro munosabatidan foydalanishga xarakat qilindi. Mashhur rassom P.Konchalovskiy<sup>1</sup> bejiz: “Aniq rangni naturadan aks ettirish qiyin, har daqiqada rang o`zgarishi mumkin. Shuning uchun ranglarning o`zaro munosabatidan foydalanish lozim. Agar ular bir-birini naturada inkor etmasa, unda uyg`unlikka va naturani to`g`ri aks ettirish mumkin” – degan edi. Bajarilgan etyudlar asosida kartinada ranglarning o`zaro munosabatini aniqlashtirildi. Manzaradagi osmon tusini berishda, undagi bulutlarning yoritilgan tomoni va soyalari yerga, yerdagi ob`yektlar, daraxtlar va boshqalarni tasvirlashda hisobga olindi. Bu omillar rang tuslari va ranglar uyg`unligiga erishishda, zangori koloritni berishda, ishning muvaffaqiyatli chiqishini ta`minladi. Agar kartinadagi rang va rang tuslarini o`zaro uyg`unligiga erishilmasa, manzarada biror-bir rang va rang tusi ortiqcha ko`rinadi va kompozitsiyadagi keraksiz rang sifatida qabul qilinadi. “Qishloq” manzarasida ranglarni berishda umumiylikdan foydalanish o`z samarasini berdi. Bu degani, manzaradagi osmon va yerdagi ranglarning o`zaro munosabati belgilab olinib, umumiy rangga, ya`ni koloritga bo`ysundirilib, umumlashtirildi. Shuni unutmash lozimki, manzarani chizish davomida tabiatning umumiy rang va tuslarini aks ettirishda yorug`likni ahamiyati ham katta hisoblanadi. Manzaradagi qishloq bahor faslida tasvirlangan, unda yorug`lik ko`p. Tabiatning umumiy rang va rang tuslari aks ettirishda yorug`likni roli ham juda katta ahamiyatga ega. Agar tasvirdagi yorug`lik, undagi ob`yektlar umumlashtirilmasa haqqoniy ko`rinishga ega

¹ V.V. Stasov. Izobrannie stat'i o russkoy jivopisi. – M; 1968 g. 24 str



bo'lmaydi. Masalan, tongni tasvirlashda, hali quyosh chiqmasdan oldin narsalar quyoshli kunga nisbatan xiraroq ko'rinadi. Manzarani ishlashda bularning hammasini hisobga olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. G' Abdurahmonov. Kompozitsiya. -T., TDPU, 2009
2. R. Hasanov. Tasviriy san'at asoslari.-T., "G'ofur G'ulom". 2009 y.
3. R. Hasanov. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi.-T.. "Fan", 2004.
4. R. Rajabov, X. Sultonov. Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi (*o'quv qollanma*).- T., 2008.